

Buxoro viloyatida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari 2025- yil yanvar-dekabr


- I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi
- II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi
- III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari
- IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar
- V. Foydali havolalar

I. Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi

2025- yil yanvar-dekabr oylaridagi dastlabki ma'lumotlarga ko'ra (*norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda*), ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **42 659,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilga nisbatan o'sish sur'ati **114,0** % ga yetdi.

Ma'lumot uchun: 2024- yilda xizmatlar hajmi **34 441,6** mlrd. so'mni, o'sish sur'ati esa **110,0** % ni tashkil etgan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari o'sish sur'ati dinamikasi



II. Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimidagi o'zgarishi

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlarining umumiy hajmida Buxoro shahrining ulushi **29,4** %, ya'ni **12 557,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. 2024- yilga nisbatan ushbu shaharning o'sish sur'ati **120,4** % ni qayd etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulush G'ijduvon (**8,3** %), Vobkent (**4,3** %) va Romitan (**3,7** %) tumanlarida kuzatildi. Qorovulbozor tumanida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **559,0** mlrd. so'mni yoki umumiy xizmatlar hajmining **1,3** % ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining shahar va tumanlar kesimida asosiy ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mlrd. so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati ¹	42 659,2	100,0	114,0
<i>tumanlar:</i>			
Olot	973,7	2,3	114,6
Buxoro	1 486,3	3,5	114,0
Vobkent	1 831,3	4,3	111,1
G'ijduvon	3 521,2	8,3	116,8
Kogon	899,0	2,1	111,2
Qorako'l	1 256,8	2,9	114,7
Qorovulbozor	559,0	1,3	119,6
Peshku	1 509,5	3,5	114,2
Romitan	1 573,4	3,7	114,6
Jondor	1 555,5	3,6	115,5
Shofirkon	1 237,6	2,9	113,6
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	12 557,7	29,4	120,4
Kogon shahri	1 072,2	2,5	114,9

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining shahar va tumanlar kesimidagi hajmi](#)

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori o'sish sur'atlari Buxoro shahridan tashqari viloyatning boshqa shahar va tumanlarida, xususan, Qorovulbozor (**119,6 %**), G'ijduvon (**116,8 %**), Jondor (**115,5 %**), Romitan (**114,6 %**) tumanlarida kuzatildi. 2024- yilga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan yuqori bo'lmagan o'sish sur'ati Vobkent (**111,1 %**), shuningdek, Kogon (**111,2 %**) va Shofirkon (**113,6 %**) tumanlarida qayd etildi.

2025- yilning yanvar-dekabr oylarida Buxoro viloyatida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **20 391,6** ming so'mni tashkil etib, 2024- yilga nisbatan (**16 715,2** ming so'm) ko'rsatkichga nisbatan **3 676,4** ming so'mga yoki **12,2 %** ga o'sishi qayd etildi.

Shahar va tumanlar kesimidagi tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, ushbu davrda aholi jon boshiga ko'rsatilgan xizmatlarning eng yuqori ko'rsatkichi Buxoro shahriga to'g'ri kelib, **41 526,7** ming so'mni tashkil etdi. Bu ko'rsatkich 2024- yilga nisbatan **8 830,0** ming so'mga (+**18,4 %**) oshdi. Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining nisbatan past ko'rsatkichi Shofirkon (**6 544,4** ming so'm) qayd etildi.

¹shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

**Shahar va tumanlar kesimida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining
hajmi va o'sish sur'ati ko'rsatkichlari (2025- yil yanvar-dekabr)**

	Hajmi, ming so'mda	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	20 391,6	112,2
<i>tumanlar:</i>		
Olot	9 133,9	112,9
Buxoro	8 104,3	112,0
Vobkent	12 001,0	109,2
G'ijduvon	10 679,9	115,1
Kogon	10 310,0	109,1
Qorako'l	7 169,3	113,2
Qorovulbozor	27 266,9	117,3
Peshku	11 214,6	112,2
Romitan	10 190,5	113,2
Jondor	8 169,7	113,6
Shofirkon	6 544,4	112,6
<i>shaharlar:</i>		
Buxoro shahri	41 526,7	118,4
Kogon shahri	16 295,4	113,7

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmi](#)

[Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan bozor xizmatlari hajmining o'sish sur'ati](#)

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **30 280,3** mlrd. so'mni yoki umumiy bozor xizmatlari hajmining **71,0** % ni tashkil etdi. 2024- yilga nisbatan **16,8** % ga o'sish kuzatildi.

Shahar va tumanlar kesimida Buxoro shahrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2024- yilga nisbatan **1 974,9** mlrd. so'mga (+**37,7** %) oshib, **6 110,9** mlrd. so'mga yetdi. Mazkur shaharda kichik tadbirkorlik subyektlarining ulushi **48,7** % ni tashkil etdi.

Bundan tashqari, G'ijduvon (**3 000,7** mlrd. so'm), Jondor (**1 268,2** mlrd. so'm) va Buxoro (**1 234,9** mlrd. so'm) tumanlarida ham yuqori ko'rsatkichlar qayd etildi. Qorovulbozor tumanida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **301,7** mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuningdek, Olot tumanida (**803,0** mlrd. so'm) va Kogon shahrida (**824,5** mlrd. so'm) kichik tadbirkorlik subyektlarining hajmi nisbatan past bo'lgan.

Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar sohasi bo'yicha kichik tadbirkorlik ko'rsatkichlari
2025- yil yanvar-dekabr

	Hajmi, mlrd. so'mda	Jami hajmdagi ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Buxoro viloyati	30 280,3	71,0	116,8
<i>tumanlar:</i>			
Olot	803,0	82,5	114,5
Buxoro	1 234,9	83,1	118,3
Vobkent	1 067,0	58,3	114,9
G'ijduvon	3 000,7	85,2	119,6
Kogon	770,5	85,7	118,6
Qorako'l	994,1	79,1	115,4
Qorovulbozor	301,7	54,0	86,4
Peshku	1 121,1	74,3	114,4
Romitan	1 144,3	72,7	115,6
Jondor	1 268,2	81,5	117,1
Shofirkon	988,8	79,9	114,7
<i>shaharlar:</i>			
Buxoro shahri	6 110,9	48,7	137,7
Kogon shahri	824,5	76,9	120,4

III. Xizmat turlari bo'yicha xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025- yil 27- fevraldagi PQ-78-son "Xizmatlar sohasi barqaror rivojlanishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorida xizmatlar sohasini rivojlantirish va uning monitoringini amalga oshirish bo'yicha maqsadli parametrlari belgilangan.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishiga savdo xizmatlari (+14,8 %; o'sishiga ta'siri 3,2 foiz band hissa qo'shdi), transport xizmatlari (+17,6 %; 3,2 f.b.), moliyaviy xizmatlar (+17,0 %; 2,1 f.b.), yashash va ovqatlanish xizmatlari (+7,1 %; 1,9 f.b.), boshqa xizmatlar (+18,3 %; 0,7 f.b.), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (+19,3 %; 0,6 f.b.), shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar (+29,8 %; 0,5 f.b.) va ta'lim sohasidagi xizmatlar (+8,2 %; 0,4 f.b.) o'sishi asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Shaxsiy xizmatlar (+17,9 %), kompyuter va maishiy texnikani ta'mirlash (+15,9 %) xizmatlari hajmining 0,3 foiz bandga o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

2025-yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor xizmatlari tarkibida yashash va ovqatlanish xizmatlari 27,1 %, savdo xizmatlari 22,0 %, transport xizmatlari 18,0 %, moliyaviy xizmatlar 12,2 %, ta'lim sohasidagi xizmatlar 4,6 %, boshqa xizmatlari esa 3,7 % ulushni egalladi.

Xizmatlar sohasining asosiy turlari bo'yicha ko'rsatkichlari


	Hajmi, mlrd. so'mda		O'sish sur'ati, % da
	2024- y.	2025- y. yanvar-dekabr	
Xizmatlar – jami	34 441,6	42 659,2	114,0
<i>shundan:</i>			
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	979,7	1 299,2	119,3
moliyaviy xizmatlar	4 431,2	5 198,3	117,0
transport xizmatlari	5 868,0	7 661,6	117,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	5 311,4	6 930,4	115,7
yashash va ovqatlanish xizmatlari	9 542,6	11 576,6	107,1
savdo xizmatlari	7 771,9	9 379,5	114,8
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	505,3	673,5	129,8
ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 618,5	1 943,6	108,2
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	564,1	784,6	122,9
ijara xizmatlari	507,1	699,7	126,8
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	637,2	796,5	115,9
shaxsiy xizmatlar	623,1	829,6	117,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	199,7	238,5	109,7
boshqa xizmatlar	1 193,2	1 578,0	118,3

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy turlari bo'yicha hajmi](#)


2024- yilga nisbatan yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi **2 034,0** mlrd. so'mga oshib, **11 576,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Uning o'sishiga asosan oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash xizmatlari ta'sir ko'rsatib, mazkur xizmatlar ulushi **95,9** % darajasida qayd etildi.

Yashash va ovqatlanish xizmatlari hajmi tarkibi



2024- yilga nisbatan ushbu tahlil qilinayotgan davrda savdo xizmatlari hajmi **607,6** mlrd. so'mga oshib, **9 379,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Savdo xizmatlari hajmining turlari bo'yicha tarkibi



Savdo xizmatlarining umumiy hajmida chakana savdo ulushi **64,0 %** ni tashkil etdi. Ulgurji savdo xizmatlarining ulushi esa **23,7 %** ga yetdi. Avtomobillar va mototsikllarning ulgurji va chakana savdosi, shu jumladan ularni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar, savdo xizmatlarining umumiy hajmida **12,3 %** ni tashkil etdi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida transport xizmatlari hajmi **7 661,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bu tarmoqda eng katta ulushni avtotransport xizmatlari egallab, **90,5 %** ni, o'sish sur'ati esa **117,6 %** ni tashkil etgan.

Transport xizmatlarining alohida turlari bo'yicha xizmatlar hajmi, mlrd.so'm



2025- yilning yanvar-dekabr oylarida ta'lim sohasidagi xizmatlar hajmi **1 943,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlarning ulushi ustun bo'lib, **71,0 %** ga yetdi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmi (**673,5** mlrd. so'm)da shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlarning ulushi **98,9 %** darajasida qayd etildi.

2025- yilning tahlil qilinayotgan davrida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi **784,6** mlrd. so'mni tashkil etdi. Mazkur sohadagi xizmatlar umumiy hajmining **37,1** % ni sog'liqni saqlash sohasidagi boshqa xizmatlar tashkil etdi. Shifoxona muassasalari xizmatlari **31,6** %, tibbiy amaliyot va stomatologiya sohasidagi xizmatlar – **12,5** %.

Ijara xizmatlari umumiy hajmidagi eng katta ulush yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarini ijaraga berish xizmatlariga to'g'ri kelib, **50,3** %ni tashkil etdi.

IV. Xizmatlar sohasining statistik ko'rsatkichlari bo'yicha tushuntirishlar

Ma'lumotlar norasmiy va yashirin iqtisodiyotni baholash bo'yicha o'tkazilgan statistik kuzatuvlar natijalari hisobga olingan holda shakllantirilgan.

Oylik xizmatlar hajmi quyidagi manbaalar asosida shakllantiriladi:

a) tijorat tashkilotlari (kichik korxonalar, mikrofirmalar va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilari bundan mustasno), tijorat tashkiloti bo'lgan yuridik shaxslarning alohida bo'linmalari hamda notijorat tashkilotlar (ro'yxat bo'yicha) tomonidan taqdim etilgan statistika hisobotlari;

b) kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini choraklik kuzatuv ma'lumotlari va kichik korxonalar hamda mikrofirmalar uchun yagona yillik hisobot natijalari bo'yicha baholash;

c) fermer xo'jaliklari va notijorat tashkilotlar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini tegishli statistika hisobot shakllari asosida baholash;

d) yakka tartibdagi tadbirkorlar va o'zini o'zi band qilgan shaxslar tomonidan ko'rsatilgan xizmatlar hajmini har chorakda o'tkaziladigan tanlanma kuzatuv natijalari asosida baholash.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi bu – xizmat ko'rsatishga ixtisoslashgan yoki xizmat ko'rsatish asosiy faoliyat turi bo'lmagan barcha xizmat ko'rsatuvchi yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan iste'molchilarga (jumladan, norezidentlarga) ma'lum bir vaqt davomida ko'rsatilgan xizmatlar qiymatidir.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha **ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi**da ko'rsatilgan xizmatlar uchun amaldagi bozor narxlar bo'yicha **hisoblangan to'lovlar (QQS va aksizsiz)** hisobga olinadi.

Xizmatlar bozor xizmatlari sifatida hisobga olinishi uchun, iqtisodiy ahamiyatga ega bo'lishi, real oldi-sotdi obyekti bo'lishi, narxi ishlab chiquvchi sarf-xarajatlarini to'liq yoki sezilarli darajada qoplasa, bunday xizmatlar **bozor xizmatlari** sifatida hisobga olinadi. Iste'molchilar tomonidan xizmatlar uchun to'lovlar naqd pul, shu jumladan, plastik kartochkalar va pul o'tkazish, elektron to'lovlar va elektron pullar orqali amalga oshirilishi mumkin.

Norezidentlarga ko'rsatilgan xizmatlar (agar to'lov so'mda amalga oshirilmagan bo'lsa), shartnoma narxlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan to'lov kunida belgilangan kurs bo'yicha qayta hisoblanadi.

Faoliyat turlari bo'yicha **xizmatlarni tasniflash**, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichiga muvofiq amalga oshiriladi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi MST (Milliy statistik tasniflagich) bo'yicha G-S seksiyalarga kiradigan barcha iqtisodiy faoliyat turlarining xizmatlarga tegishli qismi asosida shakllantiriladi.

V. Foydali havolalar

Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining statistik hisobi bo'yicha uslubiy nizom

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar)ning statistik tasniflagichi (MST)

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) statistik tasniflagichining G, H, I, J, K, L, M, N, O, P, Q, R va S seksiyalari kodlari batafsil (kengaytirilgan) ro'yxati

Tayyorlash uchun mas'ul:
Xizmatlar va savdo sohasi
statistikasi bo'limi

Manzil: 200100, Buxoro,
S. Ayniy ko'chasi,3
Pochta: info@buxstat.uz
Tel.: 65-223-79-41

